

## Rishton tumanidagi 61-umumta'lim maktabi uchun 240 o'rini yangi bino bunyod etildi

Rishton tumani "Yuqori Beshkapa" mahalla fuqarolar yig'inidagi 61-umumta'lim maktabi uchun 240 o'rini yangi bino qurilib, foydalanishga topshirildi. Maktabning 2009 yilda qurilgan mavjud binosi 180 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, bu yerda 400 nafar o'quvchi ikki navbatda ta'lim olayotgan edi. Davlat investitsiya dasturi asosida 2 milliard 681 million so'm mablag' evaziga maktab uchun 2 qavatli 240 o'rini yangi bino bunyod etildi. Shu munosabat bilan o'tkazilgan tantanali tadbirda tuman hokimi, sektor rahbarlari, jamoatchilik faollari, ota-onalar, maktab o'qituvchilari va o'quvchilari ishtirok etdi.

Tadbirda ishtirok etgan tuman hokimi Bahodirjon Xoliqov davlatimiz tomonidan ta'lim tizimini isloh qilish, ayniqsa, umumiyo'rta ta'lim maktablari uchun yangi binolar qurish, ularning moddiy-teknik bazasini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuksak samara berayotganini ta'kidladi.

Zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan ushbu ta'lim maskani ham o'quvchilar, ularning ota-onalari, ustozlar uchun o'ziga xos sovg'a bo'ldi. Bu yerda yangi o'quv yilidan boshlab zamon talablari asosida o'qish va o'qitish uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Yangi bino foydalanishga topshirilishi natijasida maktabda bir vaqtning o'zida 400 nafar o'quvchiga ta'lim berish imkoniyati yaratildi.

2025-01-18 14:36:02